

**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik
kengashi va O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
universiteti o'zaro hamkorlikda 2025-yil davomida amalga
oshirishi kutilayotgan tadbirlarga doir**

TAKLIFLAR

Birgalikda amalga oshiriladigan tadbirlar mazmuni:

I. Universitet akademik salohiyatni oshirish va xalqaro reyting indikatorlarini yaxshilab borish

№	Amalga oshirilishi kutilayotgan tadbirlar
1	Universitet tadqiqotchilari, professor va pedagoglari, magistratnlari orasidan trenerlar guruhi(ishchi guruh)ni shakllantirish va ular uchun 1 kunlik trening tashkil etish
2	Tadqiqotchilarning ilmiy samaradorligini baholash uchun ishlatiladigan ko'rsatkich (H-Indeks va b.)larning ahamiyati va uni yaxshilash imkoniyatlariga doir tushuntirishlarni muntazam berib borish, tadqiqotchilar xabardorligini oshirishga doir PR ishlarini olib borish uchun Media guruhini tanlov asosida tashkil etish, ular faoliyatini tashkil etish, ushbu yo'nalishda Jamoatchilik Kengashi bilan yaqindan ishlash uchun 6 oylik amaliyot ishlarini tashkil etish
3	Biznes va ilm-fan integratsiyasi: tadbirkorlik subyektlarini ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish bo'yicha treninglarni yaratish xalqaro R&D tajribasini keng targ'ib qilish uchun tadbirlarni amalga oshirish
4	Xalqaro tajribaga asoslangan malaka sertifikatlash tizimi (masalan, EU-micro-credentials) va uning imkoniyatlari haqida biznes subyektlari va keng jamoatchilik xabardorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish

II. Yuqori impact faktorli jurnallarda chop etiladigan tadqiqotlarni ko'paytirish, mahalliy ilmiy nashrlarni xalqaro tan olinishiga qaratilgan ishlarni olib chiqish

№	Amalga oshirilishi kutilayotgan tadbirlar
1	Xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish – ilmiy salohiyati yuqori bo'lgan universitetlar va Scopus, WoS ruyxatiga kirgan jurnallar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish
2	Universitetda Scopus, WoS ruyxatiga kirgan va boshqa yuqori impact faktorli jurnallarda chop etish uchun maqolalarni tayyorlash va chop ettirishni tashkil etish
3	Magistrantlar va tadqiqotchilar uchun Sun'iy intellect texnologiyalarini qo'llagan holda akademik yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan xalqaro treninglar tashkil etish

Kutilayotgan natija. Yuqorida qayd etilgan tadbirlarni amalga oshirishdan asosan quyidagilarga erishish kutilmoqda:

1. *Ilmiy-fan sohasida hamkorlikni rivojlantirish va xalqaro hamjamiyat bilan integratsiya jarayonlarini jadallashtirish:* Universitet va dunyo bo'ylab faoliyat yuritayotgan o'zbekistonlik

olimlar o'rtasida fikr almashinuv va ilmiy hamkorlikni rivojlantirish uchun ilmiy-amaliy hamkorlik va xalqaro integratsiya uchun keng imkoniyat ochiladi.

2. *Micro-credential malaka sertifikatlarini joriy etish*: Malaka tizimida kuzatilayotgan so'nggi rivojlanish tendensiyalarini inobatga olgan holda O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga top universitetlarning micro-credential kurslarini joriy qilish orqali talabalar va tadqiqotchilarning xalqaro miqyosda tan olinadigan malakaga ega bo'lishi qo'llab-quvvatlanadi.

3. *R&D xizmatlarini rivojlantirish*: O'zbekiston Iqtisodiyot assambleyasi a'zolari bo'lgan professional uyushmalar qoshida ilmiy-tadqiqot (R&D) xizmatlarini tashkil etish, bu orqali fan va iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlashga erishiladi.

4. *Xalqaro sertifikat siya va akkreditatsiya tizimini takomillashtirish*: Nufuzli universitetlar bilan hamkorlikda malakalarni baholash tizimini rivojlantirish, oliy ta'lim muassasalarining xalqaro akkreditatsiyadan o'tishini qo'llab-quvvatlash hamda xalqaro reyting tizimlarini takomillashtirishga erishiladi.

5. *National Editing Team(xalqaro junallar uchun milliy tahririyat guruhi)ni shakllantirish*. Universitetning xalqaro tajribaga ega bo'lgan yosh magistrant va doktorantlari bilan hamkorlikda alohida xalqaro jurnallar uchun tahrirchilar guruhi tashkil etiladi hamda Scopus va Web of science jurnallari tahrirchilari bilan hamkorlik o'rnatiladi.